



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

J.Norboyev ning

“Phraseology in English and uzbek language with use component
“heart” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : G.Qiyomova

“Himoyaga tavsiya etildi”
Roman-german filologiyasi fakulteti
dekani _____ dots. A. Aliqulov
“ _____ ” _____ 2015 yil

Qarshi 2015

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Frazeologiya lingvistik tadqiqot obye'kti sifatida	
1.1. Frazeologiyaning maqsad va vazifalari	7
1.2. Frazeologizmlarning klassifikatsiyasi.....	15
1.3. Frazeologik birliklarning tarjimasi.....	20
1.4. Paremiologiya tushunchasi va u haqida ma'lumot.....	28
II bob. Ingliz va o'zbek tilida zoonim va fitonim nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklarning xususiyatlari	
2.1. Ingliz va o'zbek tili frazeologiyasida zoonim va fitonimlar Klassifikatsiyasi.....	34
2.2. Tarkibida Zoonim va fitonimlar mavjud paremiyalarning sintaktik tahlili.....	52
2.3. Ingliz va o'zbek tili paremiologiyasining qiyosiy tahlili.....	57
Xulosa.....	63
Adabiyotlar ro'yxati.....	65

Kirish

Bugungi kunda, umumiy e'tirofga ko'ra, XXI asr globallashtirish va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo'q, albatta. Bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qoyadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin

Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, bundan 15 yil oldin qabul qilingan, Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi ta'lim sohasini isloh qilish, mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadbiriy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning biz tanlagan "o'zbek modeli" – o'z taraqqiyot yo'limizning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu dastur O'zbekistondagi ta'lim tizimidagi islohotlarga o'z ta'sirini o'tqazdi va yanada ta'lim tizimini rivojlantirishga yordam berdi. Ta'lim sohasini xodimlari faoliyatini baholash va rag'batlantirish mezonlari tubdan o'zgartirildi. Umuman, O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo'naltirilayotgan yillik xarajatlarni 12%ni tashkil etdi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyasida shunday degan edilar: " Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlatdan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o'tishni ta'minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, o'z yo'lini topa oladigan, ma'nan yetuk, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni egallagan insonlarga o'z

oldimizga qo'ygan strategik taraqqiyotda maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o'zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz .”¹

Mavzuning dolzarbligi. Ingliz tili ming yillik tarixga ega. Bu vaqt ichida unda insonlar tomonidan katta qiziqish bilan qaralgan ko'p miqdordagi iboralar yig'ilib kelmoqda. Xuddi shunday tilda o'ziga xos qatlam, mustaqil ma'noga ega bo'lgan turg'un iboralar uyg'unligi bo'lgan atama yuzaga keldi., ingliz tilida Frazeologiya deb nomlanuvchi fan yuzaga keldi.. Tilni puxta egallash ayniqsa ingliz tilini, uning frazeologiyasini bilmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi. Iboralarni o'z joyida, mutanosib ishlatish esa nutqni boyitadi. To'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydigan ko'chma ma'noda beriluvchi frazeologik iboralar yordamida tilning estetik aspekti kuchayadi.. Zamonaviy ingliz tilining frazeologiya dunyosi juda keng va turli-tuman va uning har bir aspektini tadqiq etish shak-shubhasiz alohida e'tiborga loyiqdir. Frazeologiya fanida o'rganiluvchi zoonimlar va fitonimlar frazeologik birliklar hali o'rganilmagan, shuni ikki tilda taqqoslash Bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligidir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. ”Frazeologizmlarni etimologik jihatini tadqiq etish u yoki bu frazeologik ibora o'zlashtirilgan xalqning madaniyati va turmush tarzini anglashda juda katta yordam beradi”² O'rganilayotgan zoonim va fitonim frazeologik birliklarni tadqiq etish, hamda zamonaviy ingliz tilini paremiyalogiyasini qiyoslash va birliklarga semantik va grammatik xarakteristika berishdir. Bu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni taqozo etadi:

-frazeologiya fanini ingliz va o'zbek tilida o'xshashlik va farqli tomonlarini o'rganish.

-tarjima jarayonida qo'llaniladigan uslublarning farqli tomonlarini o'rganish

¹ И.А.Каримов. « Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш- мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шарти» мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқи. 2012 йил.

² Попов Р.Н. Методы исследования фразеологического состава языка. – М., 1996.

-frazeologiyada qo'llaniladigan zoonim va fitonim frazeologik birliklarining farqli va o'xshashlik tomonlarini tahlil qilish.

-tarjima jarayonida zoonimlar va fitonimlar qay darajada o'zgarishlarga uchrashini, shuningdek ikki tilda ularning tahlil qilishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ish metodi. Tadqiqotda qo'yilgan masalani yoritishda hozirgi davr tilshunosligida keng tarqalgan qiyosiy tahlil, tasviriy tahlil, strukturaviy-semantik metodlardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Frazeologiya fani, shuningdek zoonimlar va fitonim frazeologik birliklari tarjimashunoslik fanining obyekti sifatida o'rganildi va tadqiq etildi. Bundan tashqari ingliz badiiy adabiyotlarida uchraydigan, ikki tilda qiyoslanib tarjima qilinmagan frazeologik birliklarning o'zbek tiliga tarjima qilishga va uni taqqoslashga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida ko'rilgan masalalar ingliz tili leksikologiyasi, tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslik kabi sohalarga ma'lum bir hissa bo'lib qo'shiladi. Amaliy leksikologiya va tarjimashunoslik bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda material sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, ingliz tili va o'zbek tillarini o'rganuvchilar uchun, tarjimonlar uchun zarur manbaa bo'lishi mumkin

Bitiruv malakaviy ishning obye'kti. Ingliz tilida uchraydigan o'simlik va hayvonlar nomlari ya'ni zoonimlar va fitonimlar nomlari bilan uchraydigan frazeologik birliklarning o'zbek tilida tarjima usullarini belgilab berish Bitiruv malakaviy ishning obyektidir.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi. Ingliz va o'zbek tilida zoonim va fitonim frazeologik birliklari olimlar tomonidan o'rganilmagan. Frazeologiya fani haqida va unda o'rganiladigan zoonimlar va fitonim frazeologik birliklarini fransuz lingvist olimi Sharl Balli birinchi bo'lib o'zining "Fransuz Stilistikasi" nomli kitobida tatqiq etgan. Shuningdek , rus tilshunos olimlari

V.V.Vinogradov, A.B. Kunin va Amosova N.N. kabilarning ushbu sohada ko'pgina tadqiqot ishlarini olib borgan.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi. "O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi, "Chet tillarini o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmoni, I.A Karimovning barkamol avlod tarbiyasiga oid asarlari,tadqiqot muammosiga oid ilmiy-nazariy adabiyotlarga asoslangan.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Qo'yilgan vazifalarning ketma- ket izchilligiga asoslanib, U Kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan ilmiy adabiyotlar ro'yxati berilgan.

-I bob asosan nazariy qism bo'lib, frazeologiya haqida umumiy ma'lumot va uning maqsad va vazifalari, frazeologizmlarning klassifikatsiyasi,frazeologik birliklarning tarjimalari berilgan. Shuningdek, Paremiologiya bo'limi haqida ma'lumotlar berilgan.

-II bob amaliy qism bo'lib,o'zbek va ingliz tillarida Zoonim va Fitonim frazeologik birliklarining o'zbek va ingliz tillaridagi xususiyatlari, ularning klassifikatsiyasi, shuningdek Zoonim va Fitonim frazeologik birliklarining ikki tildagi sintaktik va qiyosiy tahlili berilgan

-xulosa qismida, Bitiruv malakaviy ish ustida ish olib borish jarayonida o'rganilgan bilim va ko'nikmalarga asosan xulosaga kelinganligi bayon qilingan, va ikki tildagi frazeologik birliklarning o'xshashlik va farqli tomonlari, sintaktik va qiyosiy tahlil jarayonidagi olingan bilimlarga asosan xulosa keltirilgan.

-adabiyotlar ro'yxatida, Prezident asarlari va ilmiy adabiyotlar ro'yxati berilgan.

I Bob Frazzeologiya lingvistik tadqiqot obye'kti sifatida

1.1 Frazzeologiyaning maqsad va vazifalari

Frazzeologiya (grekcha phrasis-”ifoda”, logos- ”bilim,o’rganish”) – tildagi mustahkam birikmalarni o’rganuvchi tilshunoslik bo’limidir. Shuningdek frazeologiya deb butun bir tildagi, u yoki bu yozuvchining tilidagi alohida badiiy asar tilidagi mustahkam birikmalarning uyg’unligi ham deb atash mumkin.

Frazzeologiya mustaqil lingvistik bo’lim sifatida paydo bo’lganiga uzoq vaqt bo’lgani yo’q. ”Uni tadqiq etish metodlari va hajmi predmeti va vazifalari yetarlicha aniqlanmagan , to’liq yoritilmagan”³(V.B). Frazzeologizmlarning boshqa erkin so’z birikmalari bilan taqqoslab ularning asosiy xususiyatlari, frazeologik birliklarning klassifikatsiyasi boshqa nutq birliklar bilan ifodalanishi va h.k kabi masalalar ancha tadqiq etilgan. Tilshunos olimlarga frazeologizm nima? degan savolga umumiy qarash nuqtai nazar xosil bo’lmagan. Ba’zi olimlar L.P. Smit, V.P. Jukov, V.N. Temeya, N.M. Shanskiy va boshqalar frazeologiya tarkibiga uning mustahkam birikmalarini kirgizsa, boshqalari ,N.N. Amosova, A.M.Babkin, A.I. Smirnitskiy va boshqalar, -faqat aniq muayyan guruhlarni hisobga oladi. Shuningdek, ba’zi tilshunoslar ,xuddi shuningdek akademik V.V.Vinogradov frazeologizmlarga maqollarni va matallarni kiritmaydi, ularni o’z semantik va sintaktik tuzulishiga ko’ra frazeologik birliklardan farq qiladi deb hisoblagan. B.B.Vinogradov u haqda shunday degan: ” maqollar va matallar gap tuzulishiga ega va so’zning semantik ekvivalenti emas”⁴. Frazzeologiyaning lingvistik sifatidagi vazifasiga, uning u yoki bu tilning frazeologik fondini har tomonlama o’rganish kiradi. Bu fanni tadqiq qilishning muhim aspektlari shundaki frazeologik birliklarning mustahkamligi frazeologiyaning sistemaviyligi va frazeologik birliklarning

³ Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // : Избр. Тр. - М.: Наука, 1986.

⁴ Виноградов В.С. Введение в переводоведение. – М., 2001.

semantik tuzulishi, ularning kelib chiqishi va asosiy funksiyalari. rus tilshunos olimlari V.V.Vinogradov, A.B. Kunin va Amosova N.N. kabilarning ushbu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar ushbu tadqiqot uchun nazariy manbaa bo'lib xizmat qildi. Frazzeologiyaning anchayin qiyin bo'lishi frazeologik birliklarning tarjimasini bo'lib, bu sohani tadqiq etish borasida kattagina tajriba va mahorat talab etadi. Frazzeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni o'rganish metodlarini, klassifikatsiyasini, frazeologizmlarni lug'atlarda berilishini ishlab chiqadi. Tilshunoslarning frazeologiya muammosi borasidagi fikrlari, qarashlari bir xil emasligi tabiiydir. Bundan tashqari frazeologiya sohasida ish olib borayotgan lingvistlarning muhim vazifasi frazeologiya nazariyasini chet tillarini o'rgatish amaliyoti bilan uyg'unlikdagi yuqori nuqtasini topishdir. Ingliz va amerika lingvistik adabiyotlarida aynan maxsus frazeologiya nazaryasiga bag'ishlangan ishlar ko'p emas, ammo mavjud eng sezilarli ishlarda ham bunday fundamental masalalar yani frazeologizmlarning ajratishini ilmiy asoslangan kriteriyalari frazeologik birlik va so'z munosabati, frazeologiyaning sistemaviyligi, frazeologik variantdoshlik, frazeologiyaning xosil bo'lishi, frazeologiyaning tadqiqot metodlari va bosh kabi masalalar qoyilmaydi. sifatida masalasi ham ko'rib chiqilmaydi. Bu esa ingliz tilida ushbu dissiplinaning mavjud emasligidan Shuningdek ingliz va amerika olimlari tomonidan frazeologiya lingvistik dissiplika dalolat beradi.

Frazzeologiya- (gr. phrasis-"ifoda" va logos-"ta'limot") atamasi ikki ma'noda ishlatiladi: 1) til frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmi majmui. Frazzeologiyaning o'rganish predmeti frazeologizmning tabiati va substansional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir. Frazzeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi.

Frazzeologizm- *ibora, frazeologik birlik, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma* atamalari bilan ham yuritiladiva shuningdek frazeologiya

leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Frazeologizm tashkil etuvchisiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi. Biroq ular ko'proq qo'shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizm lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologizm lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi, bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi. Frazeologizm tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi yoki gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi ko'rinishidagi frazeologizm: *ko'ngli bo'sh, enka-tinkasini chiqarmoq, jig'iga tegmoq, bel bog'lamoq, kir izlamoq, terisiga sig'may ketmoq* va h.k. Gap tipidagi frazeologizm «gap kengaytiruvchisi+kesim» qolipi mahsuli: *istarasi issiq, ichi qora, labi-labiga tegmaydi, ko'ngli ochiq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, kapalagi uchib ketdi, po'konidan yel o'tmagan, tepa sochi tikka bo'lmoq* va h.k.

Ayrim leksik birliklar frazeologizmning tadrijiy taraqqiyot mahsulidir: *dardisar, toshbag'ir, boshog'riq*. Demak, leksema hosil bo'lish manbalaridan biri frazeologizm va asosan, belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so'z turkumiga mansub.

Fe'l turkumiga mansub frazeologizmlar: *me'dasiga tegmoq, yaxshi ko'rmoq, holdan toymoq, sabr kosasi to'lmoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, og'ziga talqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq*.

Sifat turkumiga mansub frazeologizm: *ko'ngli bo'sh, rangi sovuq, yuragi toza, avzoyi bejo, dili siyoh, kayfi buzuq*.

Ravish turkumiga mansub frazeologizm: *ipidan-ignasigacha, ikki dunyoda ham, miridan-sirigacha, ha-hu deguncha*.

So'z - gaplarga mansub frazeologizm: *turgan gap, shunga qaramay, katta gap*.

Frazeologizmlar tilshunosligimizda muayyan so'z turkumi bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyati yetarli darajada o'rganilmagan. Frazeologizm leksik birlik kabi qo'llanish darajasi nuqtai nazaridan ham tasnif qilinadi. Bunga

ko'ra umumiste'mol frazeologizmi- *holdan toymoq, shunga qaramay, ro'yobga chiqmoq*- va qo'llanilishi chegaralangan frazeologizmlar farqlanadi. Qo'llanilishi chegaralangan frazeologizm qo'llanilish davri (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy, badiiy so'zlashuv) bilan ham ma'lum bir tafovutlarga ega:

Eskirgan frazeologizm: *alifni kaltak demoq, aliflayloni bir cho'qishda qochiradigan, dastin aliflom qilib, kallasini ham qilib, yeng silkitmoq*;

Dialektal frazeologizm: *alag'da bo'lmoq*-xavotir olmoq, *ko'ngli tob tashladi*-ezildi, *halak bo'lmoq*-ovvora bo'lmoq, *qumortqisi quridi*-intiq bo'lmoq;

Ilmiy frazeologizm: *nazar tashlamoq, ko'zga tashlanmoq, chambarchas bog'lanmoq, to'g'ri kelmoq, imkoniyatlar doirasi, qulay qurshov*;

Badiiy frazeologizm: *sabr-kosasi to'lmoq, og'zining tanobi qochmoq, og'zidan bodi kirib, shodi chiqmoq, qildan qiyiq axtarmoq, six ham kuymasin, kabob ham, boshida yong'oq chaqmoq*;

So'zlashuv nutqi frazeologizmi: *arpasini xom o'rmoq, yerga urmoq, yuragi qon, ko'zi tor, ko'zi och, boshi ochiq*.

Frazeologizmning aksariyati badiiy va so'zlashuv nutqiga xos:

Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi. Iboralar tilda tayyor holda mavjud. Ikki yoki undan ortiq so'zning birikib, yaxlit holda ko'chma ma'no ifodalashiga frazeologik birikma deyiladi. Frazeologizmning semantik tuzilishi (ma'no imkoniyatlari) frazeologik ma'no va qo'shimcha ma'no boyoqdorligidan iborat. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot *frazeologik ma'no* deyiladi. Frazeologik ma'no obrazlilik bilan leksik ma'nodan farq qiladi.

Ko'p ma'noli iboralar (iboralarda polisemiya) - Iboralarning asosiy qismi bir ma'noli. Iboralarda ko'p ma'nolilik kam uchraydi: *Eskini yamaguncha esing ketadi. Uni maqtab* esi ketdi. *Jangchi goh-goh o'ziga kelib yotdi. Endi o'zingga* kelding.

Omonim iboralar-Bir xil shaklda tuzilgan, ammo boshqa-boshqa ma'nolarni

ifodalaydigan iboralar omonim iboralar deyiladi. Omonim soʻzlar tilda koʻp boʻlishiga qaramay, omonim iboralar kam uchraydi: *Boshiga koʻtarmoq*- Uyni boshiga koʻtargan bolalar tinchib qolishdi (*“shovqin solmoq” maʼnosida*), Har doim sizni boshiga koʻtaradi (*“eʼzozlamoq” maʼnosida*).

Sinonim iboralar-Maʼnodoshlik hodisasi ibora uchun ham xos. Shaklan har xil iboralarning bir-biriga yaqin maʼnolarni anglatib kelishi sinonim iboralar deyiladi:

Kayfi buzuq-taʼbi tirriq.

Toqati toq boʻlmoq-sabr kosasi toʻlmoq.

Yaxshi koʻrmoq-koʻngil bermok

Lugʻaviy birlik sifatida iboralar soʻzlar bilan ham sinonimik munosabatda:

Tomdan tarasha tushganday-kutilmaganda

Ogʻzi qulogʻida-xursand,

Joni chiqmoq-gʻazablanmoq,

Taʼbi xira-xafa,

Qoʻling oʻrgilsin-ajoyib.

Antonim iboralar-Qarama-qarshi maʼno ifodalovchi iboralar antonim iboralar deyiladi:

koʻkka koʻtarmoq-yerga urmoq,

yuzi yorugʻ-yuzi shuvut;

koʻngli joyiga tushmoq-yuragiga gʻulgʻula tushmoq.

Sh.Ballining frazeologiya nazariyasi. Sharl Balli (1865-1947) – fransuz millatiga mansub shevitsariyalik lingvist olim, „phraseologis“ atamasini „bogʻliq soʻz birikmalarini oʻrganuvchi stilistikaning boʻlimi“ degan fikrni aytgan⁵, ammo bu atama yevropalik va amerikalik lingvistlar tomonidan qabul qilinmagan va ishlarga boshqa uch maʼnoga qoʻllanilgan.

1.soʻz tanlovi, ifoda shakli, formulirovka.

2.til, bugʻun, usul

3.ifoda, soʻz birikmasi.

⁵ Балли Ш. Французская стилистика. - М.: Эдиториал УРСС, 2001

Sh.Balli frazeologiya nazariyasining asoschisi hisoblanadi, chunki u birinchi bo'lib o'zining "Fransuz stilistikasi" nomli kitobida frazeologiya haqida bobni kiritgan. U o'z ishlarida "so'z birikmalarining to'rtta turini" ajratib ko'rsatgan.

1.Erkin so'z birikmalari (les groupements libres) yani, turg'un bo'lmagan, hosil bo'lganidan so'ng tarqalib ketuvchi birikmalar.

2.Odatiy birikmalar (les groupements usuels) yani, komponentlar bilan aloqada ba'zi o'zgarishlarga yo'l qoyuvchi so'z birikmalar.

3.Frazeologik qatorlar (les series phrasedologiques) yani, ikki tushuncha bitta tushunchani ifodalaydi

4.Frazeologik birliklar (les unites phraseologiques) yani, so'zlar o'z ma'nosini yo'qotib, butun bo'linmas tushunchasi ifodalovchi birikmalar.

Shunday qilib, Sh. Balli konsepsiyasi so'zlarni turg'unlik darajasiga ko'ra farqlanishiga asoslanadi; komponentlar guruhlanishi erkinligiga ega bo'lgan birikmalar va bunday erkinlikka ega bo'lmagan birikmalar. Keyinchalik buyuk tilshunos biz yuqorida ko'rib chiqqan o'z konsepsiyasini qayta ko'rib chiqadi va shunday xulosaga keladi, odatiy birikmalar va frazeologik qatorlar birikmalarning oraliq turlariga mansubdir. Shunda Sh.Balli birikmalarning faqat ikki asosiy guruhini ajratdi.

1.Erkin birikmalar.

2.Frazeologik birliklar

Ya'ni, komponentlari muntazam ravishda berilgan birikmalarda bir fikrni ifodalash uchun qo'llaniladigan so'z birikmalari. Hamma birikmalar butunligiga yangi ma'noni kashf etadi, Sh. Balli "bunday qurilmani ximiyaviy birikuv bilan taqqoslash mumkin" deb takidlaydi va ya'ni "agar birlik yetarlicha qo'llanuvchan bo'lsa, unda ko'rinib turibdiki, bu holda birikma oddiy so'z bilan tenglashadi" deb aytadi. Sh. Ballidan so'ng frazeologiya boyicha tadqiqotlar oldinga siljidi. Ammo buyuk olimning frazeologiyani o'rganish borasida yozganlari frazeologik tadqiqotlarning taraqqiy etishiga asos bo'ldi.

Frazeologizmning soʻzga ekvivalentligi. Frazeologiyaning lingvistik fan sifatida rivojlanishi keyingi vaqtlarda tadqiqotchilar oldida anchayin murakkab muammoni, frazeologik birlikni soʻz bilan munosabati aloqasi muammosini keltirib chiqardi. Zamonaviy tilshunoslikda bu savolga bogʻliq turli-tuman nuqtai nazarlar mavjud. Baʼzilar frazeologik birliklar soʻzlarning ekvivalentlari deb xisoblashsa, boshqalari ularni frazeologik birlikning soʻzga ekvivalentligi nazariyasi Sh. Balli tomonidan ishlab chiqilgan ekspressiv faktlarning taqqoslash konsepsiyasiga borib taqaladi. Bunda frazeologik qurilmalarning umumiy xususiyati, berilgan birikma oʻrniga bitta oddiy soʻz qoyishi imkoni borligi yoki yoʻqligi nazarda tutilgan. Bunday soʻzni Sh. Balli "identifikator" soʻz deb atagan. Balli bunday sinonimning mavjudligini frazeologizmlar butunligi xususiyatining ichki sifati kabi koʻrib chiqadi. Bu konsepsiyaga koʻpchilik lingvistlar, H.H.Amosova, B.P.Jukov, A.V. Kunin, A.I. Smiritskiy qoʻshilishmadi. "Frazeologizmning semantik yaxlitligi bu yoʻl bilan oʻrnatilmaydi" deb yozadi V. P. Jukov frazeologiya haqidagi oʻz ishida. -"zero soʻzning oʻzgaruvchan birikmalari ham sinonim soʻzlari boʻlishi mumkin". Masalan: *look fixedly* – to stare; *sufferings of mind or body* – pain.

Darhaqiqat, frazeologizmlar koʻp hollarda soʻzga oʻxshash, garchi frazeologik birliklarning maʼnosi va ular identifikatsiya qilinayotgan soʻzlarning maʼnosi oʻrtasida, qoida boyicha, tenglik belgisini qoyib boʻlmaydi. Frazeologizm semantikasining koʻrinarli elementi ular ifodalayotgan tushunchaning baholanishi boʻlib shu bilan bir vaqtning oʻzida soʻzning maʼno strukturasi uchun baholash xususiyati past darajada boʻladi.

Koʻp hollarda frazeologizmlar va ular bilan tenglashtirilayotgan soʻz stilistik boyoqdorligi bilan farqlanadi va alohida soʻzlarga nisbatan frazeologik birliklar ideografik sinonimlar emas balki stilistik sinonimlar roliga nomayon boʻladi. Shuni nazarda tutish kerakki maqollar va matallar yaʼni gap tuzulishidagi frazeologizmlarni faqatgina gap yordamida tanib olish mumkin.

Masalan : *Birds of a feather flock together – people who have the same interests, ideas etc. The blind leading the blind – a situation in which the person who is leading or advising others knows a little as they do* (n 35)

Frazeologik birliklarning semantik butunligi uning ma'nosini uning komponentlarining ma'nosi bilan qiyoslaganda hamda uning kontekstda qo'llanilishi xususiyatlarning namoyon bo'lishi bilan ifodalash mumkin.

“Frazeologizm va so'z” muammosida asosan ikki yo'nalishda aniqlangan: tor yo'nalishda- leksikologiyaning asosiy qismi sifatida frazeologizmni leksikologik tushunish, frazeologizm birlik so'zga ekvivalent sifatida va keng yo'nalishda- frazeologizmni mustaqil lingvistik qoida sifatida tushunish. To'liq ekvivalentlik nazariyasining ba'zi bir tarafdorlari N. N. Amosova , A. E. Smirnitkiy va boshqalar frazeologizmni leksik birlik sifatida ko'rib chiqishadi; “ular maxsus o'ziga xos klassifikatsiyaga muhtoj bo'lmaydi va ularni xuddi so'zlar kabi klassifikatsiya qilish lozim” deydi A. E. Smirnitkiy .Masalan u frazeologizmni leksikologiya tarkibiga kiritgan. Shunday qilib so'z u qanchalik semantik tuzilishi jihatdan murakkab bo'lmasin frazeologizm sohasiga tegishli emas u leksikologiya va leksikografiyaning oby'ektidir. So'z frazeologizmlar nutqqa tayyor holda kirib keladi. Bu fakt yaxlit ekvivalentlik nazariyasining foydasiga olib boradi. Frazeologizm so'zga mansub emas va unga butunligicha ekvivalent emas. U o'zida murakkab turdagi leksik birlikni namoyon etadi. “So'z va frazeologik birlik “ muammosi – bu turli munosabatlari va aloqalarining murakkab va qalin chatishuvidir. Taxminlardan ko'rinib turibdiki, “frazeologik birlik va so'z “ muammosi umumiy muammolar sarasiga ta'lluqli va ayni damda ancha muhim tilning frazeologik tizimi nazariyasiga asos solinishi ko'p ishlanmagan sohadir.

1.2. Frazeologizmlarning klassifikatsiyasi.

Frazeologizmlarning klassifikatsiyasi frazeologizm komponentlarini semantik uyg'unligi nuqtai nazaridan klassifikatsiyasi akademik V.V. Vinogradovga tegishlidir. Ma'lumki, frazeologizmlar ko'chma ma'noga ishlatiladigan erkin so'z birikmalaridan kelib chiqadi. Frazeologizm komponentlarini keyinchalik nominativ ma'no o'chib borishiga qarab shunchalik ular da ko'chma ma'no kuchayadi. V.V. Vinogradov ularni uch turga ajratadi; frazeologik chatishmalar, frazeologik birikuvlar, frazeologik birikmalar. Ushbu frazeologik birliklarning turlarini zamonaviy ingliz tili misolida ko'rib chiqamiz.

Frazeologik chatishmalar. Frazeologik chatishmalar yoki idiomalar – bumutlaqo bo'linmas, turg'un birikmalar bo'lib umumiy ma'nosi ularni tashkiletgan so'zlar ma'nosiga bog'liq emas.

Masalan: *kick the bucket (og'zaki) – send smb. to Coventry – biror kishiga boykot e'lon qilmoq, kim bilandir muloqatni to'xtatmoq.*

be at smb.'s beck and call – har doim xizmatga tayyor turmoq

To rain cats and dogs – chelaklab yomg'ir qoymoq.

Kilkenny cats – daxshatli dushmanlar.

Frazeologik chatishmalar komponentlarining ko'chma ma'nosi bazasida yuzaga kelgan, lekin bu ko'chma ma'no natijasida zamonaviy til nuqtai nazarida tushunarsiz bo'lib qolishgan. “Frazeologik chatishmalarning faqat tarixi ochiladi”.⁶ Masalan “bay” so'zi “berk” ma'nosini anglatadi va “beck” so'zi “qo'l silkitish” so'zlari arxaizmlar bo'lib u yuqorida berilgan frazeologizmdan tashqari boshqa joyda ishlatilmaydi. Yoki masalan *to be all thumbs* ifodasi tarixiy *one's fingers are all thumbs* ifodasidan kelib chiqqan. Xuddi shunday holat “Killkenny cats” frazeologizmda ham kuzatiladi (ko'rinishidan, 17 asrda Killkenny va Irish town shaxarlari o'rtasida bo'lib o'tgan va ularni vayronagarchilikka olib kelgan shafqatsiz kurash haqidagi afsonadan kelib chiqqan) va *send smb. to*

⁶ Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // : Избр. Тр. - М.: Наука, 1986.

Coventry frazeologizmning tarixi ham uzoqqa borib taqaladi. (Klarendanning “The history of great rebellion and civil wars in England” kitobida aytishicha, ingliz revolyutsiyasi davrida Kaventri shahrida asirlar saqlanadigan qamoqxona joylashgan). (16) Shunday qilib, frazeologik chatishmalarga to’g’ri va ko’chma ma’no o’rtasidagi aloqa yo’qolib, ko’chma ma’no ular uchun asosiy bo’lib qoladi. Xuddi shuning uchun frazeologik chatishmalarni boshqa tilga tarjima qilish juda qiyin.

Frazeologik chatishmalar quyidagi bir qator xarakterli xususiyatlarga ega: Ularning tarkibiga nekrotizm so’zlar kirishi mumkin, ular ushbu chatishmadan boshqa ishlatilmaydi, shu tufayli zamonaviy til nuqtai nazaridan tushunarsiz .

1.Chatishmalar tarkibiga arxaizmlar kirishi mumkin.

- Ular sintaktik jihatdan bo’linmas.
- Ularda ko’pincha komponentlarni o’zgartirib bo’lmaydi.
- Ular birikmalar bilan xarakterlanadi, o’z tarkibiga qo’shimcha so’zlarni qabul qilmaydi.

“O’zining mustaqil leksik ma’nosini yo’qotib,” frazeologik chatishmalar tarkibiga kiruvchi so’zlar, o’z ma’nosiga ko’ra alohida so’zga yaqin murakkab leksik birlik komponentiga aylanadilar”(32). Shuning uchun ko’pchilik frazeologik chatishmalar so’zlarga sinonim bo’ladi.

Masalan: Kick the bucket – *to die*; send smb.to Coventry – *to ignore*.

Lekin shuni unutmaslik kerakki, yuqorida frazeologizmning so’zga ekvivalentligi haqida aytib o’tganimizdek, stilistika nuqtai nazaridan frazeologik birlik va so’z bir-biridan yiroq.

Frazeologik birikmalar – bu shunday so’zlarning turg’un birikmasiki, umumiy ko’chma ma’noga komponentlarning semantik bo’linishi belgilari sezilarli saqlanib qoladi.

Masalan: *To spill the beans* – sirni aytib qoymoq

To have other fish to fry – muximroq ishlari bo’lmoq

To throw dust into smb. ’s eyes-kimnidir ko’ziga cho’p tiqmoq

To burn one's fingers – kuyib qolmoq biror narsadan;
To throw mud at smb- kimnidir loyga itarmoq, tuhmat qilmoq
To be narrow in the shoulders – hazilni tushunmaslik
To paint the devil blacker than he is – chalkashtirmoq, chigallashtirmoq.
To put a spoke in smb's wheel- kimnidir oyog'idan chalmoq
To hold one's cards close to one's chest – sir saqlamoq, jim yurmoq,
Refined gold – toza tillani yaltiratmoq; yaxshilashga urinish;
To paint the lily – yaxshilanishga muhtoj bo'lmagan nimanidir bezatishga urinish

“Frazologik birikmalar o'zining obrazlilik metaforaga boyligi bilan qandaydir frazeologik chatishmalarga yaqinroqlar” (25) lekin obrazlilik, tarkibi tarixiy frazeologik chatishmalardan farqli o'laroq frazeologik birikmalarda obrazlilik ko'chma ma'nolilik zamonaviy nuqtai nazaridan anglashiladi. Akademik V.V.Vinogradov obrazlilik faqat frazeologik birikmalarga xos xususiyat deb bekorga aytmagan. “Frazologik birikmalar komponentlari o'rtasidagi aloqa motivga ega metaforizatsiya aniq seziladi” (25) Frazologik birikmani tushunish uchun uning komponentlarini ko'chma ma'noda qabul qilish zarur. Masalan, *make a mountain out of a molehill* ifodasining ma'nosi *pashshadan fil yasash* ya'ni biror narsani juda kuchaytirish, oshirib yuborish, (so'zma-so'z tarjima kalamush inining uyumidan tog' yasash) ma'nosini ochish uchun *molehill* so'zini “biror bir sezilarsiz, kichik” ma'nosida, *mountain* so'zining “juda katta nimadir” ma'nosida ko'rib chiqilsa, ma'nosi ochiladi. Frazologik birliklar tarkibida zamonaviy til nuqtai nazaridan tushunarsiz so'z bo'lmaydi. Frazologik birikmalarning xarakterli xususiyatlari shundaki:

1. Yorqin obrazlilik va parallel ravishda mavjud so'z birikmalari bilan kelib chiqishi mumkin bo'lgan moslik. (*to throw dust one's eyes, to be narrow in the shoulders, to burn one's fingers, to burn bridges*).
2. Alohida komponentlarning semantikasini saqlanishi. (*to put a spoke in smb's wheel*)

3. Bir komponentni boshqasi bilan almashtirib bo'lmilik (to hold one's cards close to one's chest).

4. Hissiy – ekspressiv boyoqdorlik hal qiluvchi rol oynaydi (to throw dust into smb's eyes, to paint the devil blacker than he is).

5. Alohida so'zlar yoki boshqa frazeologizmlar bilan sinonimik munosabatda bo'lish qobiliyati (to gild refined gold, to paint the lily)

Frazeologik birikuvlar – bu turg'un qurilmalar bo'lib, tarkibiga ham erkin va ham frazeologik ma'noga aloqador so'zlar kiradi, masalan:

A bosom friend – yaqin do'st

A pitched battle – surunkali urush

To have a narrow escape – mo'jiza tufayli omon qolmoq.

To frown one's eyebrows – qovog'ini solmoq

Adam's apple – odam atoning olmasi

A sisyfean labour – sizifanning mehnati,

Rack one's brains – boshqotirmoq

To pay attention to smb – birortaga etibor qaratmoq.

Frazeologizm chatishmalaridan va frazeologizm birikmalardan farqli o'laroq, "frazeologizm birikuvlar fikriy bo'linishi bilan xarakterlanadi" (32). Bu holda ular erkin so'z birikmalariga yaqin turadilar. Frazeologizm birikmalarining o'ziga xos xususiyatlari.

1. Ularda komponentlardan birini variantini berish mumkin;

a bosom friend – qalin do'st

a bosom buddy- qalin do'st

2. Sterjin so'zni sinonimi bilan almashtirish mumkin. (*a pitched battle – a fierce battle*)

3. Aniqlovchi kirgizish mumkin (*the frowned his thick eyebrows – u quyuq qoshlarini oydi*)

4. Komponentlarni joyini o'zgartirish mumkin (*a sisyfean labour- sizifo mehnati, a labour of sisyphus – sizifanning ishi*)

5. Komponentlarning biri erkin qo'llanishi va bir-biriga bog'liq bo'lishi shart (a bosom friend – sirdosh do'st; dushman yoki boshqa birov sirdosh bo'lmaydi)
Frazeologizmlarning asosiy belgisi sifatida yasashining siljishini professor V. N.Shanskiyga V. Vinogradov klassifikatsiyasini ya'nada rivojlantirib frazeologizm birliklarning to'rtinchi turi – *frazeologik iborani* ajratishga yo'l berdi.

Frazeologik ibora. Frazeologik iboraga o'z tarkibiga ko'ra turg'un va ishlatishiga ko'ra butunlay "erkin nominativ ma'no va semantik jihatdan bo'linadigan "(320) so'zlardan iborat bo'lgan frazeologik iboralar tegishlidir. Ularning yagona xususiyati – yasalishi , ular muntazam leksik tarkib va aniq semantikaga ega tayyor nutq birliklari sifatida ishlatiladilar.

Frazeologik iboralar – bu komponentlarning xuddi o'sha ma'noli qurilmalaridir. Frazeologik iboralari ko'plab ingliz maqollari va matallarni o'z tarkibiga oladi, ular to'g'ri ma'noda qo'llaniladi, obrazli allegorik ma'noga ega emas;

Live and learn – beshikdan qabrgacha bilim izla.

Better untought than ill taught-Chala ishdan umuman bajarmagan ma'qul

Many men, many mind-ko'p kalladan ko'p fikr chiqadi

Easier said than done-bajarishdan aytish oson

Nothing is impossible to a willing heart-tog'ni baland dema istasang chiqasan

1.3.Frazeologik birliklarni tarjimasi

Fraziologik birliklar tarjima nazariyasi va amaliyotining eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Fraziologizmlar murakkabligi quyidagilarga bog'liq: birinchidan, bir xil moddiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar turli tillarda turlicha ma'no va stilistik funksiyalarni bajaradi, ikkinchidan, bunday so'zlar turli tillarda turli so'zlar bilan birikib keladi.

Rus tilshunosi V.V.Vinogradovning umumiy tilshunoslik miqyosida e'tirof etilgan tasnifiga ko'ra frazeologizmlar uchta guruhga ajratiladi :

Frazeologik chatishmalar: bunday birikmalarning ko'chma ma'nosi ularning tarkibidagi so'zlarga bog'liq bo'lmaydi.

Frazeologik birikmalar: bunday birikmalar ham ko'chma ma'noga ega, ammo ko'chma ma'no frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarga bog'liq .

Frazeologik birikuvlar: Bular tarkibidagi so'zlarning ma'lum bir qismigina ko'chma ma'noga ega, ya'ni birikmaning ma'nosi tarkibidagi so'zlarga bog'liq. Bular asosan ot bilan fe'lining birikuvi bo'lib, fe'l ko'chma ma'noda, ot to'g'ri ma'noda keladi. Birliklarning ingliz tilida berish juda murakkab vazifa. "O'zining semantik boyligi, obrazliligi va yorqinligining kuchi tufayli frazeologiya juda muhim rol oynaydi "⁷ U nutqda ifodalilik orginallik beradi. Ayniqsa frazeologizmlar og'zaki nutqda, badiiy adabiyotda va siyosiy adabiyotlarda keng qo'llaniladi. Frazeologizmlar tarjimasida tarjimon uning ma'nosini berishi, uning obrazliligini ifodalashi lozim, ingliz tilida mos ifodani topishi va shu bilan birga frazeologizmlarning stilistik vazifasini ham unutmaslik shart. Ingliz tilida mos obraz mavjud bo'lmagan hollarda tarjimon "yaqinroq moslikni" topishga urinadi.(11). Ekvivalentlar to'liq va qisman bo'lishi mumkin. To'liq ekvivalentlar-shunday tayyor ekvivalentlarki ular o'zbek tilidagisi bilan ma'nosi, leksik tarkibi, obrazliligi, stilistik boyoqdorligi va grammatik tuzulishi bilan mos tushadi;

⁷ Виноградов В.С. Введение в переводоведение. – М., 2001.

O't bilan oynamoq – to play with fire;

Vahti soati yetib keldi – one's hour has sturk;

Olovsiz tutun bo'lmaydi – there is no smoke without fire;

Ariday mehnatsevar – busy as a bee;

Qisman frazeologizm ekvivalentlarni tarjima qilishda, frazeologizmlarning ma'nosi va obrazlilikini tarjimada qisman yoki to'liqsiz berish degani emas. Bu atama ostida shu narsa nazarda tutilganki, taklif etilayotgan ingliz tilidagi ekvivalentlar o'zbek tilidagisi bilan biroz farqlanishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda tarjimon uchun "frazeologizm birlikni tarjima qilishda birinchi navbatda frazeologizmning obrazini berish muhim, uning til tuzilishini emas" (21).

Qisman ekvivalentlarni uch guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruhga ma'nosi, stilistik boyoqdorligi va obrazliliigi yaqinroq bo'lgan ammo leksik tarkibi farq qiluvchi frazeologizmlar kiradi:

Oltin tog' vada qilmoq – to promise wonders, to promise the moon

O'z uying o'lan to'shaging – East or west home is best

Birinchi qaldirg'och – the first portent

Bu obrazlarning ba'zilar antonimik tarjima yordamida tarjima qilinadi, ya'ni salbiy ma'no tarjimon tomonidan ijobiy konsturuksiya bilan yoki teskarisi, ijobiy ma'no salbiy konsturuksiya bilan tarjimada beriladi. Masalan:

Jo'jani kuzda sanaymiz – Don't count your chickens before the hatched.

Ikkinchi guruhga ma'nosi obrazlilik, leksik tarkibi va stilistik boyoqdorligi bilan mos tushuvchi lekin ba'zi formal belgilari, so'z tartibi, son kabilar farq qiluvchi frazeologizmlar kiradi. Masalan:

Kimnidir qo'lida oynamoq – to play into smb's hands (bu yerda sonda farq bor)

Yaltiragan hamma narsa oltin emas – All is not gold that glitters (so'z tartibidagi farq).

Uchunchi guruhga hamma belgilari mos tushadigan ammo obrazliliigi mos tushmaydigan frazeologizmlar kiradi. O'zbek tilida "kaftdagidek ayon, xuddi kaftdagidek ko'rinib turbid"i iborasi lekin ingliz tilida "to spread before eyes to

be the an open book” iborasi qo’llaniladi. Biz o’zbek tilida “*bu ko’hna dunyo, ko’hna dunyodek* “ deb gapirsak, ingliz tilida bu ibora “*as old as hills*” deb beriladi. Ba’zida frazeologizmlarning farqli belgisi sifatida u yoki bu iboraning muloqatda, nutqda qo’llanilishi tezligi, chastotasi namoyonki, bu qo’llanilayotgan frazeologiyani buzilishi so’zlovchining nutqiga noodatiy yoki hatto eski modda xarakterini berishi mumkin. Bu haqda tarjimon hech qachon unutmasligi lozim .

Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida tarjimon turg’un yoki o’zgaruvchan so’z birikmasi bilan ishlayotganini farqlay olishi kerak. Buning uchun u katta bilimga ega yoki “frazeologizmlarni qabul qilish manbaasiga” ega bo’lishi lozim. Shuni nazarda tutish kerakki, so’z birikmalarga, xuddi so’zlar kabi, ko’p ma’nolilik va omonimiya hodisasi mavjud, shunday bo’lsada ma’nolardan biri va boshqasi frazeologizm omonimi bo’lishi mumkin. Masalan:

To burn one’s fingers iborasi quyidagi ma’nolarga ega.

1. barmog’ini kuydirmoq.

2. kuyib qolmoq, xato qilmoq, adashmoq;

To be narrow in the shoulders to’g’ri ma’noga (qisqa yelkali bo’lmoq) ham ega shuningdek qo’shimcha ma’noga (xazilni tushunmaslik)ham ega . ”*Don’t mention it*” “*menga buni eslatma*” va “*arzimaydi*”, “*hechqisi yo’q*” degan ma’nolarga ega. “*to throw the book at smb.*“ iborasi “*birortani eng uzoq muddatli qamoq jazosiga jo’natmoq*” ma’nosini bildiradi. Ammo bu ibora o’zgaruvchan so’z birikmasi bo’lib ishlatilgan kontekst ham bo’lishi mumkin. Frazeologizm ba’zida o’zgaruvchan so’z birikmasida xatto bitta artikl bilan farq qilishi mumkin, bu esa holatga formal farqlovchi belgi bo’lib hisoblanadi. Masalan

To go to the sea – dengizga jo’namoq

To go to sea – dengizchi bo’lmoq

To draw a line – chiziq tortmoq

To draw the line – imkoniyatni chegaralamoq

Frazeologiyani yaxshigina puxta egallash odatiy va kam ishlatiladigan ishlatiladigan frazeologizmlarni farqlash uchun, shuningdek ‘‘avtorlik transformatsiyasi’’ ga uchragan frazeologizmlarning tiklash uchun ham zarurdir.

Avtorlik o’zgaruvi asosan quyidagi stilistik qo’llanishlarga bo’linadi:

1. Iboraga to’g’ri ma’no bilan semantik mos yangi komponent olib kirish. Masalan : *To put the cart before the horse* – hamma ishni teskarisini qilmoq (so’zma-so’z esa otni aravani orqasiga bog’lamoq), quyidagicha o’zgarishga uchragan. *“Let’s not put the cart too far head the horse”* (E. S. Gardner.)

2. Frazeologizmlarni alohida komponentlarini boshqa so’zlar bilan almashtirish natijasida frazeologizmning leksik grammatik tarkibini yangilash. Bunda iborani o’ziga xos deformatsiyasi yuzaga keladi, matn oson tiklanadi. Masalan: Bibliyada uchragan *“to have a millstone about one’s neck”* (yurakda og’ir tosh bilan yurmoq) iborasi S. T. Koldrij tomonidan o’zgartirilib shu ko’rinishga kelgan.

“have an albatross about one’s neck” (so’zma-so’z yelkada albatrosni olib yurmoq) S.T. Koldrijning *“The ancient mariner”* poemasida Albotrosni o’ldirilishi kemaga kulfat olib kelgan va bu qotillikni yelkasida osib yurish jazosiga mahkum dengizchi haqida gap boradi.

3. Frazeologizmning tarqalishi va uning komponentlarini o’zgaruvchan so’z birikmasi tarkibida qo’llash.

Bu holatda alohida komponent (yoki komponentlar) iboraning butun mazmunini tashkil qiluvchi birlik birlashtiruvchi ma’nosini tashuvchisi hisoblanadi. Frazeologizmning to’liq shakli uning mazmunini tiklamasdan turib ikkinchi planga o’tmaydi. Masalan:

-“I ‘ve got a cold”

-“It’s in your feet.” (b. ma)

Bu dialogda so’zlovchilardan biri xastaligidan shikoyat qilsa, boshqa so’zlovchi esa bu kasallik emas, qo’rqoqlik deb aytyapti. Frazeologizm bu yerda bir komponent, *to get cold feet* – qo’rqmoq, cho’chimoq bilan berilgan.

Frazeologizm to'liqligicha emas, komponentlarini qismlari saqlanishi bilan ham berilishi mumkin. Masalan:

"He complained to Fleur that the book dealt with nothing but birds in the bush".
bu yerda maqolning bir qismi ishlatilgan. *"a bird in the hand is worth two in the bush."* *A bird in the bush* bu misolda quruq va'dalar ma'nosida kelgan. Ingliz tilidan o'zbek tiliga frazeologizmlarni tarjima qilishda maksimal adekvatlikka erishish uchun tarjimon turli "tarjima ko'rinishlari" dan foydalana olishi lozim.

1. Ekvivalent tarjima, ya'ni o'zbek tilida mavjud adekvat qurilma ingliz tilidagi qurilma bilan ma'no-mazmun va obraz asosi jihatidan mos kelishi. Masalan:

As cold as ice - muzday sovuq, the salt of the earth -erning tuzi, swallow the pill – acchiq dorini ichmoq.

2. Analog tarjima, ya'ni o'zbek tilidagi shunday turg'un iboralar ma'nosini ingliz tiliga adekvat lekin obraz asosi jihatidan undan qisman yoki to'liq farq qilishi. Masalan:

a drop in the bucket- dengizga tomchi,
it is rained cats and dogs- chelaklab quydi

3. Tasviriyl tarjima ya'ni inglizcha iboraning ma'nosini erkin so'z birikmalari bilan berish yo'li tarjima qilish. Tasviriyl tarjima o'zbek tilida ekvivalent va analoglar mavjud bo'lmaganda qo'llaniladi. Masalan :

To rob Peter to pay Paul- birovdan olib boshqani qarzini bermiq;

To burn the candle on both ends- erta tongdan tungacha ishlamoq

4. Antonomik tarjima ya'ni salbiyl ma'noni ijobiyl qurilma yordamida berish yoki teskarisi. Masalan :

To keep one's head- boshini yo'qotmaslik

To keep one's head above water- qarzga botmaslik

To keep one's pecker up- ruhi tushmaslik

5. Kalkalash metodi frazeologizmlarning obrazlilikini ajratib ko'rsatish uchun yoki inglizcha ibora boshqa tarjima turlari bilan tarjima qilib bo'lmaganda tarjimon tomonidan ishlatiladi. Masalan:

The moon is not seen when the sun shines(maqol)- quyosh charaqlab turganda oy ko'rinmaydi.

6.Aralash tarjima. O'zbek tilidan tarjima inglizcha frazeologizmning ma'nosini to'liq berolmaganda yoki vaqt, makon kabi o'ziga xos koloritga ega bo'lganda kalkalash tarjimasi beriladi, so'ngra tasviriy tarjima beriladi va o'zbekcha analog qiyoslanadi. Masalan :

Carry coals to Newcastle- Nyukastlga ko'mir tashimoq ya'ni biror narsani o'sha yerda yetarli bo'lgan joyiga olib boorish.

Frazeologik birliklar barcha uslubdagi adabiyotlarda keng ishlatiladi. Mahoratli tarjimon u yoki bu frazeologizmning noaniq tarjimasiga yo'l qoymasligi shart. Frazeologiyani bilmasdan, o'rganmasdan nutqning ifodaliligini va yorqinligini baholab bo'lmaydi, hazilni, so'z o'yinini va ba'zan shunchaki iboraning ma'nosini tushunmaslikka olib keladi. Jonli o'zbek tilida maqol, matal va xatto idiomalar ham bir-biridan farq qilinmay qisqacha maqol deb yuritiladi. Biroq amalda maqol, matal va idiomalar jiddiy farq qiladi. Shuning uchun ilmiy adabiyotda ko'chma ma'noli bunday birikmalarning hammasi ham xalq tilida shunday ishlatiladi degan sabab bilan "Maqol" deb ishlatimaslik, ularning har birini o'z nomi bilan atash maqsadga muvofiqdir.

Bizda to oxirgacha ma'nolari bir-biriga aynan muvofiq keladigan birikmalar ham, muayyan kontekst ichidagina bir-birini o'rnini ba'zan shartli ravishda, zo'rg'a qoplay oladigan birikmalar ham ekvivalent deb kelinadi. Ikki tilda, kontekstsiz ham ma'nolari bir-biriga monand va bir-birlarining o'rnini qoplay oladigan maqol, matal va idiomalarni "ekvivalent birikma" deb qabul qilish mumkin. Boshqa tilardan kalka yo'li bilan tarjima qilib qabul etilgan birikmalar ham ekvivalent bo'la oladi Y.I. Retskerning fikricha, hatto boshqa tildan so'zma-so'z tarjima qilish natijasida ba'zan buzib tarjima qilingan idiomalar ham agar ular tilga singib ketgan bo'lsa, ekvivalent bo'la oladi. Ekvivalent birikmalarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

Strike while the iron is hot- temirni qizig'ida bos.

Don't count your chicken before they hatchet- Jo'jani kuzda sanaydilar
One swallow doesn't make a summer - bir qaldirg'och bilan yoz bo'lmas.
Reap as one has sown – nimani eksang shuni o'rasan.
Practice makes perfect – tajriba kamolot yaratadi. va.h.k

Odatda ekvivalent birikmalarning faqat ma'nosigina emas, balki shakli va obyektlari ham bir-biriga muvofiq tushadi. Ammo ingliz tilida juda ko'p maqol idiomatik iboralar borki, o'zbek tilida har doim ham ularning to'liq ekvivalentlari topilmaydi. Shuning uchun ma'nolari faqat muayyan kontekst ichidagina bir-birini qoplay oladigan frazeologizmlarni "muqobil birikma" deb atash mumkin. Ba'zan inglizcha bir birikmaga ayni kontekst ichida bir emas, bir necha birikmalar muvofiq kelishi mumkin. Bunday birikmalarni "muqobil variantlar" deyish mumkin. Birikmaning muqobillari yoki muqobil variantlari faqat kontekst ichidagina bir birini almashtirishga olar ekan, bunda ularning ma'nosi to'g'ri kelsa ham ko'picha formalar va ayniqsa obyektlari muvofiq tushmaydi. Agarda tasvirlangan voqealar jarayoni, situatsiya, obrazning xususiyati va boshqa hollarga qarab qanday muqobil ibora tanlangani tarjimon hal qiladi. Ayrim frazeologik iboralarning ekvivalentlari boshqa birikmalar uchun muqobil variant bo'lib kelishi ham mumkin. Jahondagi ko'pchilik xalqlarning tillarida ayrim maqol va idiomatik birikmalarning ekvivalentlari ishlatiladi. Masalan:

lotin tilida: "*Praestat Ser quam nenquat*" rus tilida "*luchshe pozdno chem nikogda*" ingliz tilida "*better late than never*", O'zbek tilida bu maqol "*Hech bo'lmagandan kech bo'lgani yaxshi*" deb so'zma-so'z tarjima qilingan. Shunday qilib frazeologizmlarni so'zma-so'z tarjima qilishga ba'zan zarurat ham tug'iladi. Morozov MM : "Ba'zan asar uslubining o'ziga xos maqollarni aynan tarjima qilishni talb etadi" degan edi.

Adekvat tarjima-Asl nusxani to'liq aks ettiruvchi, u bilan tenglashadigan tarjima adekvat tarjima deyiladi.

A. V. Fedorov «Tarjima nazariyasiga kirish» nomli asarida maqol va matallarni rus tiliga tarjima qilishning quyidagi usullarini ko'rsatadi;

1. Maqol va materiallarni tarkibidagi soʻzlarning moddiy maʼnosini aynan saqlangan holda aniq tarjima qilish.
2. Asl nusxadagi maqol, matal va frazeologik oborotlar tarkibidagi soʻzlarning moddiy mazmunini yoki shaklini bir muncha oʻzgartirib tarjima qilish.
3. Asl nusxadagi maqol, matal va frazeologik butunliklarni asar tarjima qilinayotgan tilda haqiqatda mavjud boʻlgan muqobili bilan almashtirish.

Olimning aytishicha, frazeologizmlarni tarjima qilishning birinchi va ikkinchi usullari qoʻl kelmagan taqdirda, ularni tarjima tilida mavjud boʻlgan koʻchma maʼnoli birikmalar bilan almashtirish maʼqul. Bu usul tarjimada katta oʻrin egallaydi. Maqol, matal va idiomatik iboralarni tarjima qilishning A.V. Fedorov belgilab bergan bu uch usuli boʻlib, jumladan, ingliz tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilish amaliyotiga ham muvofiq keladi. Frazeologizmlarni oʻrganish planida adekvat tarjima yaratish, avtor va tarjimon uslubi, tarjimada milliy koloritni aks ettirish va boshqa muhim nazariy masalalarni tadqiq qilish katta ahamiyatga molikdir. Olimlarni aniqlashlaricha har bir kishi tilimizdagi 800 ga yaqin maqol, matal, yoki aforizm haqidagi tushunchaga ega boʻladi. Lekin tilning paremiologik boyligi bir necha oʻn minglab paremalarni oʻz ichiga oladi. Hozirda chet tilini yaxshiroq mukammalroq bilish uchun oʻsha tilning fonetikasini, grammatikasini, leksikasi bilan bir qatorda uning boy paremiologik merosini ham chuqur egallash lozim.

1.4 Paremiologiya tushunchasi va u haqida ma'lumot

Til kishilar o'rtasidagi aloqani eng muhim vositasi, fikrni boshqalarga yetqazuvchi quroldir. Til milliy madaniyatning oynasi uni saqlovchi xazina hamdir. Har bir xalq yashayotgan tabiati, u xalqning iqtisodiy tizimi, og'zaki ijodiyoti, urf- odatini o'zida aks ettirib to'plab avloddan-avlodga yetkazib berish tilning milliy- madaniy semantikasidir. Milliy madaniy semantik tilning hamma qatlamlarida: leksikasida ham grammatikasida ham, hatto fonetikasida ham mavjud. Ammo milliy - madaniy semantika tilning harakatdagi birliklarida juda ham aniq namoyon bo'ladi. Bunday til birliklari so'zlar, frazeologizmlar va paremalaridir.

Paremiologiya so'zi (gr. Paroima- hikmat va logos-fan) so'zlaridan olingan bo'lib, ma'lum bir tildagi maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar sistemasini o'rganadigan fandır. Demak , paremiologiya koinot qonuniyatlarini kuzatish turmush, tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi, xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirgan avlodan- avlodga og'zaki formada ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda qisqa va mazmundir mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, aforizm kabi hikmatli iboralarni o'rganadi. Paremiologiyada qo'shma fikrni ifodalovchi eng mayda birlik parema deb ataladi. Paremiologiya tildagi maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni ikki planda o'rganadi.

1.Paremlar avloddan - avlodga faqat og'zaki holdagina o'tib kelganligi, xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun adabiyotshunoslik fanining o'rganish obektidir, chunki bu hikmatli iboralarning ko'pchiligi ko'proq she'riy formaga o'xshaydi va ularda o'xshatish ,istiora, tashbeh metafora, taqqoslash, qiyoslash, kinoya, piching, kesatiq, kabi badiiy tasvir vositalari qo'langan bo'ladi.

2.Paremlar so'zlardan tuzilib ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish obektidir, chunki ular

so'zlardan hosil bo'lishiga ko'ra oddiy gaplarga o'xshasa ham mazmuni, strukturasi, intonaatsiyasi va boshqa grammatik xususiyatlari jihatidan o'ziga xosliklarga ega. O'zbek tilida hikmatli iboralarni umuman maqol deb atashadi. Ammo bu tushunchani ifodalash uchun yigirmadan ortiq terminlar qo'llanadi; maqol, matal, masal, naql, hikmat, tanbeh, zarbulmasal, hikmatli maqol, xalq iborasi, xalq so'zi, qadimgilar so'zi, donishmandlar so'zi, donolar so'zi, yaxshilar so'zi, burungilar so'zi, ulusning so'zi, hikmatli so'z va boshqalar. Badiiy adabiyotda publistik adabiyotlarda, vaqtli matbuotda ham bu terminlar deyarli farqlanmaydi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda esa idiomatik ibora, qayroqi ibora, aforizm, ko'chma ma'noli turg'un birikma, frazeologik birikma kabi terminlar bilan yuritiladi. Paremalarning qachon paydo bo'lganini aniqlash qiyin. Lekin shunisi aniqki ularning ko'pchiligi juda qadim zamonlarda yaratilgan va ular o'zini ijod qilgan xalq bilan birga yashab kelmoqda. Har qanday hikmatli ibora ham ommolashib ketavermaydi, faqat jamiyatdagi ko'pchilik xalqning orzu-umidini, istagini, hayoti va fikrini aks ettirgan hikmatli iboralargina ommolashadi avloddan-avlodga o'tadi asrlar osha yashaydi, paremalarga aylanadi. Har bir maqol va matal xalq hukmi orqali paydo bo'ladi. Ular biror narsani lo'nda qilib tasdiqlaydi yoki inkor qiladi, ya'ni haqiqatni ifodalaydi. Masalan:

Nima eksang, shuni o'rasan. Arpa eksang, arpa o'rasan. Bug'doy eksang, bug'doy o'rasan. Besh qo'l barobar emas. It huradi, karvon o'tadi.

Bu maqollarning o'z ma'nosi ham, ko'chma ma'nosi ham haqiqatdir. Har bir parema ma'lum bir davrning mahsuli sifatida tug'iladi, yashaydi va ma'lum bir davrga kelib iste'moldan chiqib ketadi. Paremlar davrlar o'tishi bilan silliqalanadi, sayqal topadi ma'lum qolipga tushadi. Bora-bora ma'lum bir formada "qotib" shu holatda qo'llanadigan bo'lib qoladi, ya'ni tayyor holdagi til birligi sifatida ishlatiladi. Paremlar ham tilning boshqa elementlari kabi ma'lum qonuniyatlarga boysunadi. Paremlar so'zlardan hosil bo'ladi hamda ma'lum bir fikrni ba'zan ikki fikrni bildiradi. Bu fikr

yoki fikrlar esa o'sha tilda so'zlashuvchilar uchun tushinarli bo'ladi bunday so'zlar kompleksi ham uzoq davrlar mobaynida xizmat qiladi. Demak paremlar ham affikslar, so'zlar kabi nutqda emas tilda mavjud bo'ladi. Tildagi so'zlar har xil tovushlardan hosil bo'lib bir tushunchani bildiradi. Bu tushuncha esa dunyodagi ko'pchilik tillarda ham mavjud bo'ladi. Masalan: *odam, non, suv, xotin, yemoq, ichmoq* va boshqalar. Bu so'zlar orqali ifodalangan tushunchalar hamma tillarda ham bor faqat boshqacha tovush kompleksi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: *so'roqlab-so'roqlab har qanday joyni topish mumkin* degan mazmunni anglatuvchi parema turli xalqlarda turli so'zlar orqali ifodalanadi; ruslar "*yazik do kiyeva dovedet*" Deyishsa fransuzlar "*quilangue a, a Rome va*" deyishadi, o'zbeklar esa "*so'rab, so'rab Makani topibdi*" deb aytishadi. Demak bu paremlar orqali ifodalangan fikr ning ichki tomoni bo'lib, qanday so'zlar bilan ifodalanishi esa tashqi tomonidir. Demak paremlar ichki tomonning bir xil bo'lishi shu xalqlarning yashash sharoitlariga ham bog'liq. O'zlarining ana shu tuyg'ularini esa qisqa ixcham paremalarda ifodalaydi. Hikmatli iboralar orqali bildirilgan fikr ham tilda faqat umumiy bo'ladi. Paremlar biror voqea holat va situatsiyalarsiz esga kelmaydi. Demak paremlarning ma'nosi kontekstdan tashqarida reallashmaydi faqat umumiy bo'ladi. Paremlarning mazmun va stilistik xarakteristikasi faqat konkret matndagina oydinlashadi. Paremlar orqali ifodalangan fikr mazmun uning ichki tomoni umuminsoniy hodisa chunki tafakkur qonuniyati internatsional xarakterga ega Paremlar mantiqiy fikrlashning mahsuli bo'lishi jihatidan umuminsoniy hodisa bo'lsa ham har bir xalqning o'ziga xos yashash sharoiti tarixiy rivojlanishi dunyoqarashi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan bu mantiqiy xulosalarning ifodasi bo'lmish paremlar mazmuni intonatsiyasi tuzilishi ifodalanishi jihatida milliy xususiyatiga ega bo'ladi. Paremiologik birliklar nutqda emas tilda tayyor holda mavjud bo'lganligi uchun ular til hodisasi sifatida, semantik fonetik va grammatik jihatdan endigina o'rganilmoqda O'zbek tilini sintaksisini,

fonetikasini o'rganishda paremalarni o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berish ularni maxsus va sistemali tekshirish zarur. Masalan: ba'zi paremalardagi komponintlarni bir biriga munosabati hozirgi tilimizdagi so'zlarni leksemantik, grammatik birikishiga to'g'ri kelmaydi *"Ahmoqqa to'qmoq"*, *"Tanimasni siylamas"*, *"Bermasni oshi pishmas"*. Hozirgi o'zbek tilida sifatdoshni ma+s affikslari bilan hosil bo'lgan bo'lishsiz formasi kelishiklar bilan turlanmaydi. Bu forma o'rnida ma+gan shaklidagi sifatdosh formasi qo'llaniladi va bunday qo'llash norma hisoblanadi. Paremalogiyani o'rganish obekti juda keng bo'lgandek paremalarni tiplari ham juda xilma-xil. Ularning hammasi haqida fikr yuritish ham ancha mushkul shuni hisobga olib bu kitobda paremiologik birliklarning faqat bir qismi maqol, matal tipidagilari haqida fikr yuritilib ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berildi. O'zbek tilida maqol, matal tipidagi paremiologik birliklarni uch turga bo'lish mumkin:

1. Maqollar - grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'noda ham o'z ma'nosida qo'llaniladigan hikmatli xalq iboralaridir. *"Shamol bo'lmasa daraxtning shoxi qimirlamas"*, *"Chumchuq soysa ham qassob soysin"*, *"Qizim senga aytaman kelinim sen eshit"*, *"Sulaymon o'ldi, devlar qutildi"*, *"Bolta tushguncha kunda dam oladi"* kabilar.

2. Matallar- tarbiyaviy, pand- nasihat ma'nolarini ifodalovchi Grammatik jihatdan to'liq gap shaklda bo'lgan faqat ma'nosida to'g'ri ma'noda qo'llaniladigan qisqa, ixcham, xalq iboralar. *"Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l"*, *"Yaxshidan ot qoladi yomondan dod qoladi"* *"Odam olasi ichida, mol olasi tashida"* kabilar.

3. Aforizmlar - umumlashtirilgan fikrni ifodalovchi lo'nda hikmatli iboralar aforizmlardir. Ular ikki turli bo'ladi: nutqiy aforizmlar va til aforizmlari. Nutqiy aforizmlar ma'lum bir shaxsga oid bo'ladi, aforizmlar esa hamma uchun tushunarli va ular ommaviy qo'llaniladi. Masalan: A, Navoiyning

”*Odami ersang demagil odami, Onikim yo’q xalq g’amidin g’ami* ” hikmatli iborasi nutqiy aforizm. Ammo uning ”*Aytar so’zni ayt, aytmaz so’zidan qayt*”, ”*Bilmaganni so’rab o’rgangan olim va orlanib so’ramagan o’ziga zolim*”, ”*Sihat tilasang ko’p yema, izzat tilasang ko’p dema*” kabi hikmatli iboralar til aforizmga aylanib hamma tomondan qo’llanilib umumxalq iborasiga o’tib ketgan. Paremalarda grammatik zamon, mayl, nisbat, shaxs son kategoriyalari ularning intonatsiyasi ham odatdagi gaplardan farq qiladi. Masalan: bunday iboralar shaklan qaysi zamonni ko’rsatishga qaramasdan doim umumiy zamonni ifodalaydi, bu iboralarning kesimi ikkinchi yoki uchinchi shaxsni ko’rsatsa ham mazmunan umumga qaratilgan bo’ladi va shaxsi umumlashgan gaplarni hosil qiladi. Paremalar ko’chma ma’noni bildirishi yoki bildirmasligidan qat’iy nazar ularning ma’nosini izohlash zarur chunki, har bir parema qanday vaziyatda va qanday situatsiyada qo’llanilishiga qarab umumiy ma’noga ega bo’lsa ham biror ma’nosi farqlanadi. Paremalar tugallangan gap shaklida bo’lganligi uchun ular faqat kengaytirilgan gaplar orqali izohlanadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan ham maqol ,matal tipidagi paremalar bir necha xil klassifikatsiya qilinadi. a) strukturasiga ko’ra b) semantik xususiyatiga ko’ra. Strukturasiga ko’ra paremalar 2 turda bo’ladi sodda va murakkab paremalar bo’ladi.

Demak paremalar tuzilishi jihatidan eng kam 2 elementdan iborat bo’ladi va tugallangan fikr bildiradi. Bu fikrni bildiruvchi gap bo’laklari, odatda bosh bo’laklar bo’ladi. Bosh bo’laklarning bo’lishi yoki bo’lmasligiga qarab, har bir paremada 2 element bo’lishi va ular ikki intanotsion markazga bo’linishi shart. Masalan:”*Tegirmon navbati bilan*” paremasida kesim ifodalanmagan bo’lishiga qaramasdan egadan keyin pauza qilinib, shu so’zni oxirgi bo’g’ini cho’zibroq talaffuz qilinib keyingi bo’lak- hol alohida intonatsiya kesim-intonatsiyasi bilan talaffuz etilmoqda va tugallangan fikrni bildirmoqda .Paremalarda ega ifodalanmaganda ham yuqoridagidek ikki qismga ajralish hodisasi roy beradi: ”Bo’lmaganga,bo’lishma” ”*Suymaganga, suykanma*”.

Aytganimizdek, paremani eng kami ikki mantiqiy markaz hosil qiladi. Bu mantiqiy markazni tashkil qiluvchi so'zlar bosh bo'lak vazifasida kelishi ham, kelmasligi ham mumkin. Masalan: *"Bolalik-podsholik"*, *"Pokliging-sog'liging"*, *"Ehtiyot-shart"*, *"Til-suyaksiz"*, *"Ahtargan topar"*, *"Oltin chirimas"*

II Bob Zamonaviy ingliz tilida zoonim va fitonim frazeologik

birliklarining xususiyatlari

2.1. Ingliz va o'zbek frazeologiyasida zoonim va fitonimlar mavjud

birliklarning klassifikatsiyasi.

Birliklar prototiplarining metaforik ma'no o'zgarishi ayniqsa o'zgaruvchan so'z birikmalarining har qanday tilning shu jumladan ingliz tilining frazeologiyasining boyishini muhim manbalaridan biridir. Metaforik frazeologizmlar turli xil o'xshashliklar real va oylab topilgan o'xshatishlarga asoslanadi va faqat shaxs boshqa narsalarni ifodalashi mumkin. Umuman olganda ko'pchilik birliklar antroposentrik harakterga ega, ya'ni inson va u bilan bog'liq narsalarga tegishli. Bu iboralar odatda baholash xususiyatiga ega. Baholar salbiy hamda ijobiy bo'lishi mumkin.

Shaxs va inson xarakteri, uning ma'naviy va ijtimoiy chizgilariga bo'lgan Zoonim va fitonimlardan tashkil topgan paremiologik birliklar ingliz va o'zbek frazeologiyasida anchaginani tashkil etadi. Bu birliklar insonning salbiy va ijobiy jihatlarini ifodalashda o'z o'rniga ega. Ishda biz 223ta paremiologik birlikni ko'rib chiqdik ulardan 42 tasi fitonimlar va 181 tasi zoonimlardir. Olingan birliklarni semantik xususiyatlariga ko'ra sinflarga ajratdik:

- I Xulq atvor sifatleri – 50 ta parema
- II Borlik, mavjudlik – 41 ta parema
- III Ijtimoiy soha – 28 ta parema
- IV Tashqi ko'rinish- 27 ta parema
- V Emotsional- psixik holat- 25 ta parema
- VI Mehnat faoliyati-6
- VII Odob-axloq – 21 ta parema
- VIII Jismoniy xususiyat- 17ta parema
- IX Nutq -6ta parema
- X Individuallik- 2ta parema

I Xulq atvor sifatlari.

Ehtiyotkorlik

It is ill to waken sleeping dogs-o'zinga ehtiyot bo'l qo'shningni o'g'ri tutma

Put not your hand between the bark and the tree-esing borida etagingni yig'

When the fox preaches, take care of your geese-o'zing ehtiyot bo'l...

The scalded cat fears cold water-og'zi kuygan qatiqniyam puflaydi

It's a bold mouse that nestles in the cat's ear-ehiyoting bo'lsa ehtiyoting bo'lmas

Give never the wolf the whether to keep-bo'riga qo'yni ishonma

*Better ride an ass that carries us than a horse that throws us-uzoqdagi quyruqda
yaqindagi o'pka yaxshi*

Send not a cat for lard-sichqonni pishloq uchun jo'natma

Take heed of the snake in the grass-qo'yningdagi ilondan qo'rq

Nothing must be done hastily but killing of fleas-go'zallik qurbonlik talab qiladi

Qat'iylik, jasurlik

To beard the lion in his den-dushmaningni uyida yeng

The bull must be taken by the horns-ho'kiz shohi bilan mag'rur

*Grasp the neetle and it won't sting you-mard yo'lida gov bo'lsa bir hamlada dov
bermas*

Gather your rosebuds while you may-uddalay oladigan ishing uchun maqtan

Xasislik

A dog in the manger-o'zi yemas itga bermas

He that will steal an egg will steal an ox-o'g'rini qaroqchi urdi

*One cannot run with the hare and hunt with the hounds-ikki quyonni ketidan
yugurgan ikkovidanam quruq qolar*

Too much pudding will choke the dog-semizlikni qo'y ko'tarar

Manmanlik,

An ass in a lion's skin-kalla boshqa salla boshqa

Don't ride a high horse-nonni katta tishlasang ham katta gapirma

Every dog is a lion at home-harkim uyida mard

The highest tree has the greatest fall-katta tog'ning toshi ham katta

Yuzsizlik

Barking dogs seldom bite-huradigan it qopmaydi

All lay loads on a willing horse-oldindagi ishni xudo biladi

What can you expect from a hog but a grunt?-ta'magir, baribir ta'magir

Yengiltaklik, yuzaki o'ylash

Never buy a pig in a poke-o'ynasang ham o'ylab gapir

It's a bold mouse tha nestles in the cat's ear-o'ynashmagi arbob bilan, arbob urar har bob bilan

Qo'rqqoqlik

Hares may pull dead lions by the beard-qo'rqqoqning odati maqtanmoq

Rats desert (leave) a sinking ship-xoin xavfli bo'ladi

O'jarlik

To flog a dead horse-o'lganni ustiga tepmoq

There are more ways than one to kill a cat-ko'p kalladan ko'p fikr

Ikkiyuzlamachilik, makr

Cats hide their claws-ligingcha qoltiriksiz o'z

A wolf in sheep's clothing-orsizda yuz bo'lmas

With foxes we must play the fox-egilganga egil kerilganga keril

Dushmanlik

To live cat-and-dog life-it mushukdek yashamoq

Two dogs over one bone seldom agree-ikki ho'kiz boshi bir qozonda qaynamas

The great fish eat up the small-hamma yuk ketmonchiga tushar

Qiziquvchanlik

Curiosity killed the cat-yetti o'lchab bir kes

Ayyorlik

As slippery as an eel-ilon yog'ini yalagan

Even a worm will turn-do'stni do'stligi uning bir yuzliligidir

Bezor bo'lish

Flies go to the lean horse-orzuga ayb yo'q

Ikkilanish

To beat about the bush-b bir kesyetti o'lcha

Ko'rinib turibdiki, ehtiyotkorlik etnik mentalitet uchun ahamiyatli sifatlardan biri.

II. Mavjudlik, borlik

Hayotiy tajriba

A fly in the ointment-yiqilsang tuflini ayblama

As the tree falls, so shall it lie-osmon qulasa chittakka ne g'am

Better an egg today, than a hen tomorrow-bugungi jo'ja kechagi tovuqqa o'rgatarmish

Burn not your house to fright the mouse away-burgaga achchiq qilib ko'rpa yoqma

It is a good horse that never stumbles-yaxshi ot keyin chopadi

To count one's chickens before they hatched-jojani kuzda sanaydilar

Wait fir the cat to jump-birni ko'rib fikr qil birno ko'rib shukr

You cannot catch old birds with chaff-mushuk taking oftobga chiqmaydi

Don't teach fish to swim, Don't teach the dog to bark-o'z kasbining ustasi

The fox is not taken twice in the same snare-ko'r hassasini bir marta yo'qotadi

Great oaks from little acorns grow-noma eksang shuni o'rasan

A bad bush is better than an open field-yo'qdan ko'ra harna

Two dogs fight for a bone and a third runs away with it-olgan olganniki ot minganniki

A bird in the hand is worth two in the bush-nasiya saryog'dan naqd o'pka yaxshi

Curses like chickens come home to roost-birovni qarg'asang o'zinga urar

Hayot xususiyati

One swallow does not make a summer-bir qaldirg'och bilan bahor bo'lmas

One woodcock does not make a winter-bir qarg'a bilan qish bo'lmaydi

If the sky falls we shall catch larks-dunyono suv bossa o'rdakka ne g'am

If wishes horses, beggars might ride-kambag'alni tuyadayam it qopadi

The last straw breaks the camel's back-so'nggi pushaymon o'zingga dushman

There is small choice in rotten apples-hechdan ko'ra kech yaxshi
To bring grist to the mill-birov o'lmay birov kun ko'rmas
The fox may grow grey but never good-bukrini go'r tuzatar
One cannot run with the hare and hunt with the hounds-yolg'iz otni cangi chiqmas
change chiqsayam dong'i chiqmas
Let the cock crow or not, the day will come-bugungi ishni ertaga qo'yma
There are as good fish in the sea as ever came out of it-hechdan ko'ra kech yaxshi
Laws catch flies but let hornets free-holvani hokim yer kaltakni yetim
Turmush qiyinchiliklari
A hard nut to crack-ogir karvon og'ir ko'char
As well be hanged for as a sheep as for a lamb-o'g'irlikni solsang qo'yninga
sirtmoq tushar bo'yninga
He that would eat the fruit must climb the tree-tuyaga yantoq k.k bo'lsa bo'ynini
cho'zar
It is too late to lock the stable when the horse has been stolen-so'nggi pushaymon
o'zingga dushman
Omadsizlik,
As well be hanged for a sheep as for a lamb-o'g'irlikni olsang qo'yninga sirtmoq
tushar bo'yninga
When pigs fly-tuyani dumi yerga tekkanda
He killed two birds with one stone-bir o'q bilan ikki quyonni urmoq
Every dog has his day-har yerni qilma orzu har yerda bor toshu tarozu

III. Ijtimoiy soha

Ijtimoiylik

Hawks will not pick out hawk's eyes-qarg'a qarg'ani ko'zini cho'qimaydi
Dog doesn't eat dog. Crows do not pick crows eyes. Wolf never wars against wolf.
One scabbed sheep will mar a whole flock-tirraqi buzoq podani bulg'ar
Birds in their little nests agree-harkim o'z uyida hokim
Man to man is wolf-odamni odam yeydi

Who scrubs every pig he sees will not long be clean himself, Who keeps company
 with the wolf, will learn to howl-qozong yaqin yursang qorasi yuqar
 Geese with geese and women with women-teng tengi bilan tezak qopi bilan
 Sub'yektiv baholash
 the cat shuts its eyes when stealing cream-ko'rib ko'rmaslikka olish
 Neither fish nor flesh-o'zingda yo'q olamda yo'q
 Every cock sings in his own manner-o'z joyida laycha ham sher
 Honey is not for the ass's mouth-bolni bol deydi, bolni bilgan yeydi
 If you want a pretence to whip a dog, say that he ate a frying-pan
 A stick is quickly found to beat a dog with-tayoq maymunga nomoz o'qitar
 Jamiyatdagi o'rni.
 A cock is valiant on his own dunghill-harkim o'z uyida hokim
 Birds of a feather flock together-har qush o'z tupi bilan
 Every bird likes its own nest best-o'ziniki o'ziga oy ko'rinar ko'ziga
 Better be the head of a dog than the tail of a lion-itning boshi bo'lgandan sherning
 dumi bo'lgan yaxshi
 Fish begins to stink at the head-baliq boshidan sasiydi
 Bolalar
 as the tree, so the fruit-olmani tagiga olma tushadi
 Many a good cow has a bad calf-guruch kurmaksiz bo'lmaydi
 One chick keeps a hen busy-bir bolaga yetti mahalla ota ona
 A wild goose never laid a tame egg-olma olmadan uzoqqa tushmaydi
 The black crow thinks her own birds white-qo'ng'iz ham bolasini oppog'im deydi
 Oila, nikoh
 A great dowry is a bed full of brambles-katta daraxtning soyasi ham katta bo'ladi
 It is an ill bird that fouls its own nest-bir buzoq butun podani bulg'ar
 Every family has a black sheep-guruch kurmaksiz bo'lmaydi

IVTashqi ko'rinish

Qiyofa

a lion is known by his claws-insonni gap so'zidan bilishar

A black hen lays a white egg-bir palakdan turli qovun

All cats are grey in the dark-qorong'uda qora ko'rinasan,yorug'da oq

Can the leopard change his spots?-bukrini go'r tuzatar

That is a horse of another colour-yuzi boshqa ichi boshqa

You cannot judge a tree by its bark-daraxtga po'stiga qarab baho bermaydilar

Pigs might fly if they had wings-tuyani dumi yerga tekkanda

The fox may grow grey but never good-bukrini g'r tuzatar

There is a small choice in rotten apple-hechdan ko'ra kech yaxshi

You cannot make a crab to walk straight-basharan qiyshiq bo'lsa oynadan o'pkalama

The wolf may change his coat, but not his disposition-yuz o'zgarar, qalb qolar

Little pigeons can carry great messages-kichkina qo'l buyuklikka qodirdir

Oaks may fall when reeds stand the storm-katta boshning og'rig'I ham katta

The smallest axe may fell the hugest oak-kichkina demang bizni ko'tarib uramiz sizni

Ko'rinish

As black as a crow-qarg'adek qora

As like as two peas-olmaning ikki pallasidek o'xshash

There is no rose without a thorn-tikonsiz gul bo'lmaydi

Every family has a black sheep-guruch kurmaksiz bo'lmaydi

Ulg'ayish

As the old cock crows so does the young-yoshlikda olingan bilim qalbga o'yilar

Great oaks from little acorns grow-gavdaga qarab to'n bichma

A tree must be bent while young-nihol yoshligidan egiladi

Qadam tashlash

It is a good horse that never stumbles-yaxshi ot keyin chopadi

V Emotsional-psixik xolat.

Istak-hohish, niyat

if you run after two hares you will catch neither-ikki kemaga qo'l cho'zsang g'arq bo'lasan

*A living dog is better than a dead lion-itday yashagandan sherday o'lgan yaxshi
The apples on the other side of the wall are the sweetest-qo'shnining xotini qiz ko'rinarmish*

Honey is sweet but the bee stings-chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi

Quvonch, shod-xurramlik

As merry as a cricket-kulgudek xursandchilik

When the cat is away the mice will play-sulaymon o'lib devlar qutuldi

Birds in their little nests agree-o'z uying o'lan to'shaging

Erkinlik, ozodlik

Nightingales will not sing in a cage- bulbulga tikondek oshyon bo'lmasmish

The mouse lordships where a cat is not-mardlar yo'q joyda nomardlar hokim

A cat may look at king-yirtiq bo'lsa to'nim yirtiq,ko'nglim podshodan ortiq

Sevgi

Love me love my dog-sevsang borligimcha sev

The black crow thinks her own birds white-qo'ng'iz ham bolasini oppog'im deydi

Every mother thinks her own gosling a swan-ona uchun bola boldan totli

Bezovtalik

Like a cat on hot bricks-oyog'i kuygan tovuqdek

The mountain has brought forth a mouse-ishongan tog'da kiyik yotmas

Dogs that put up many hares kill none-ikki ishga uringan bo'sh qo'l b.n qolar

Qurquv

The scalded cat ears cold water-sutdan og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi

G'am –alam

As melancholy as a cat-mushukday beozor

Istamaslik

You may lead (take) a horse to the water, but cannot make him drink

Bo'shanglik

There is no room to swing a cat-oyoq qo'yishga joy yo'q

VI Mehnat faoliyati

Mehnat

As busy as a bee-asalariday mehnatsevar

He that would eat the fruit must climb the tree-tuyaga yantoq k.k bo'lsa bo'ynini cho'zar

Little strokes fell great oaks-kichkina demang bizni,ko'tarib uramiz sizni

The early bird catches the worm-mehnat qilgan rohat ko'rar

With time and patience the leaf of the mulberry becomes satin

All day loads on a willing horse-istasang cho'qqini zabt eteasan

A busy bee has no time for sorrow-mehnat bor joyda qayg'uga o'rin yo'q

Feather by feather the goose is plucked-qadamba qadam cho'qqi zabt etiladi

Go to bed with the lamb and rise with the lark-erta turgan ish bitirar,kech turgan ko'p turtinar

No bees, no honey: no work, no money-ishlamagan tishlamaydi

Ko'nikma va mahorat

he that will eat the kernel must crack the nut-ishlagan tishlaydi

The dog that trots about finds a bone-yugurgannikimas buyurganniki

Grain by grain and the hen fills her belly-takrorlash bilimlar onasi

If two men ride on a horse, one must sit behind-bir qozonda ikki bosh qaynamaydi

An oak is not felled with one stroke-ikki ishga uringan ikkisiniyam uddalamaydi

An old dog will learn no new tricks- you cannot teach old dogs new tricks.

Zeal without knowledge is a runaway horse-amaliyotsiz bilim yomg'irsiz bulutdir

An old ox makes a straight furrow-qari bilganin pari bilmas

Ishyoqmaslik

A cat in gloves catches no mice-burga tutish uchun ham barmoqni ho'llamoq k.k

The early bird gets the late one's breakfast-erta qilingan harakat keltirar barakat

The sleeping fox catches no poultry-ishlamagan tishlamaydi

A lazy sheep thinks its wool heavy-ahmoqqa boshi og'irlik qilar

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, “ Mehnat faoliyati “ sinfi o'z tarkibiga ikki guruhni oladi – mehnat va mahorat va ko'nikma, bu esa o'z navbatida milliy mentalitetning insonning mehnatga moyilligini harakterlovchi o'ziga xos tomonlarini ochishda muhim ahamiyatga egadir.

VII Xulq-atvor

Ushbu sinf quyidagi kategoriyalarni o'z ichiga oladi.

Hatti-harakat

A bird may be known by its flight, A tree is known by its fruit-odamning bo'yidan molning enidan bilishadi

It is a good horse that never stumbles-yaxshi ot keyih chopadi

You cannot play the same ox twice-ko'r hassasini bir marta yo'qotadi

Don't swap horses in the middle of the stream-otni oqimda almshtirmaydilar

Each stain comes to sight on a horse that is white-oyda ham dog' bor

If you sell a cow, you will sell the milk too-qalbni sotmoq o'zlikni yo'qotmoqdir

One barking dog sets the whole street a barking

Jazolash,

Do not spur a willing horse-ezish o'ldirish bilan teng

A rolling stone gathers no moss-qo'nimi yo'qning unimi yo'q

Scornful dogs will eat dirty puddings-teng tengi bilan

Curses like chickens come home to roost-qish uchog'i tor tur uyinga bor

Tavakkal qilish

It's a bold mouse that nestles in the cat's ear-qush uyasida ko'rganini qilar

The mouse that has but one hole is quickly taken-mushuk o'yini o'ylaguncha sichqon iniga kirar

I will either win the saddles or lose the horse- o'ychi o'yini o'ylaguncha tavakkalchi ishini bajaradi

To give a sprat to catch a mackerel-yetti o'lchab bir kes

Xulq-atvor sinfida hatti-harakat kategoriyasi ko'proq foizni taskil etadi. Jazolash va tavakkal qilish kabi kategoriyalar ozchilikni taskil etgan zero, bu kategoriyalar ma'lum darajada millatning fikrlashni ifodalaydi.

VIII Jismoniy xususiyatlar

Yosh

It will be a forward cock that crows in the shell-erta kelgan erta ketar

An old ape has an old eye- odatlar odam bilan birga qariydi

The old cow thinks she was never a calf-kechagi chorig'ingni unutma

An old dog will learn no new tricks-mulla bilganini o'qiydi

There is life in the old (horse) dog yet-gavhar gavharligicha qoladi

Jismoniy kamchiliklar

One scabbed sheep will mar a whole flock-tirraqi buzoq podani buzar

The rotten apple injures its neighbours-tirraqi buzoq podani buzar

Every family has a black sheep-guruch kurmaksiz bo'lmaydi

Kuch- zaiflik

Oaks may fall when reeds stand the storm-sulaymon o'lib devlar qutuldi

Little strokes fell great oaks-kichkina demang bizni,ko'tarib uramiz sizni

Harakat

*Better ride an ass that carries us than a horse that throws us-ishonmagin do'stinga
somon tiqar po'stinga*

If one sheep leaps over the ditch, all the rest will follow-dono bo'l ergashsin xalq

Sog'lik

A cat has nine lives-ayolning qirq joni bor

To'qlik

Fine words butter no parships-ko'p gap eshakka yuk

Tush ko'rish

*Go to bed with the lamb and rise with the lark-erta turganish bitirar kech turgan
ko'p turtinar*

Kulgu

It is enough to make a cat laugh-kulgu umrni uzaytiradi

Shunday qilib ushbu sinfda shaxsda vaqt o'tishi bilan shakllanib boruvchi yoshga xos sifat va xususiyatlar ifodalovchi yosh kategoriyasi dominantlik qilgan.

XI Aqliy qobiliyatlar

Quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

Donolik va nodonlik

If the ass bray at you, don't bray at him-ahmoqqa tenglashish ahmoqlik

He knows how many beans make five-men qilaman o'ttiz xudoyim qilar to'qqiz

All asses wag their ears-hamma ahmoqlar til bilan yuradi

As mad as a March hare-go'rdek orong'u

To find a mare's nest-qush uyasida ko'rganin qilar

To flog a dead horse-o'lganning ustiga tepish

Don't put cart before the horse-ostin ustun qilma

It's a silly fish that is caught twice with the same bait-ko'r hassasini bir yo'qotadi

Jest with ass and he will flap you in the face with his tail-Take not a musket to kill a butterfly

Ushbu sinfda bitta kategoriya bo'lib, o'zida insonning muayyan aqliy qobiliyatlarini va ularga milliy mentalitet nuqtai nazaridan berilgan bahoni ifodalagan.

X Odob – axloq normalari, pand-nasihatlar.

Maqtanchoqlik

First catch your hare then cook him-avval o'yla keyin so'yla

To count one's chickens before they hatched-jojani kuzda sanaydilar

Catch the bear before you sell his skin-avval bajar so'ngra maqtan

Each bird loves to hear himself sing-harkimniki o'ziga oy ko'rinar ko'ziga

Oqibatsizlik, ko'rnamaklik, nonko'rlik

Don't look a gift horse in the mouth-yaxshilikni bilganga qil

If you agree to carry the calf they'll make you to carry the cow-birovga choh qazisang o'zing tushasan

Maqtov

A good dog deserves a good bone-itni suyak bilan ur

Mehmondo'stlik

The best fish smell when they are three days old-mehmon otangdek ulug'

Odob –axloq normalari sinfida maqtanchoqlik va nonko'rlik kabi salbiy kategoriyalar katta miqdorda berilgan. Bu insonlarni ijobiy tomonlarni rag'batlantirishdan ko'ra tanqid qilishga bo'lgan moyilligini ko'rsatadi. Ushbu holat maqtov va mehmondo'stlik kabi kategoriyalarda paremiyalarning soni kamligidan ham seziladi.

XI Nutq

Ushbu sinf quyidagi kategoriyalardan iborat:

Sergaplik, ezmalik

The dogs bark, but the caravan goes on-it hurar karvon o'tar

Pigs grunt about everything and nothing-baliqning ham sakkiz qanoti bor

What can you expect from a hog but a grunt-aytilgan gap otilgan o'q

Kamgaplik, maxfiylik, sirlik.

